

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA KAFEDRASI**

**«РОЛЬ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ В  
СОВРЕМЕННОМ ВОСПИТАНИИ»**

**МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ  
НАУЧНО – ПРАКТИЧЕСКАЯ  
КОНФЕРЕНЦИЯ**

**"THE ROLE OF FOLK PEDAGOGY IN  
MODERN EDUCATION"**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC  
CONFERENCE**

**“ZAMONAVIY TARBIYADA XALQ  
PEDAGOGIKASINING O'RNI”**

**MAVZUSIDAGI  
XALQARO ILMUY –AMALIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI**

*O'zbekiston,  
Qarshi shahri,  
15-16 dekabr 2022 yil.*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagи 101-F-son farmoyishini 1-ilovasining “2022-yilda o‘tkaziladigan xalqaro ilmiy va ilmiy-amaliy tadbirlar rejasi”ga ko‘ra 2022-yil 15-16 dekabr kunlari Qarshi Davlat Universitetida “Zamonaviy tarbiyada xalq pedagogikasining o‘rnii” mavzusida pedagogika sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanish-larning dolzarb muammolari, erishilgan yutuqlar va belgilangan vazifalarni bajarish mexanizmlarini muhokama qilish maqsadida Xalqaro ilmiy konferensiya Qarshi davlat universitetida tashkil etilmoqda.

**Konferensiyaning maqsadi:** Zamonaviy tarbiyada xalq pedagogikasining muammolari va uning yechimlarini topish, hozirgi rivojlanish tendensiyalarini muhokama qilis pedagogika sohasi bo‘yicha ta’limning yetakchi mutaxassislar bilan tajriba almashish hamda ushbu sohadagi so‘nggi tadqiqot usullarini ommalashtirishdan iborat.

### **DASTURIY QO’MITA**

<b>Nabiiev Dilmurod Hamidullaevich</b>	- Qarshi DU rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, rais;
<b>Nodir Xolmirzaev Sulaymonovich</b>	- Qarshi DU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori rais o‘rinbosari;
<b>Xolmuradov Abduhamid Erkinovich</b>	- Qarshi Davlat Universiteti o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, professor;
<b>Yuldoshev Ismoil Abriyevich</b>	- Qarshi Davlat Universiteti Pedagogika fakul’teti dekani;
<b>Soxibov Akram Rustamovich</b>	- Pedagogika kafedrasi mudiri, dotsent;
<b>Haydarova Oliya Qaxxarovna</b>	- Pedagogika kafedrasi dotsent a’zo;
<b>Ochilova Nigora Mallayevna</b>	- Pedagogika kafedrasi dotsent a’zo;
<b>Qoraxonova Oysara Yo‘ldoshevna</b>	- Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) a’zo;
<b>Zulfiya Qayumovna Murodova</b>	- Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) a’zo;
<b>Moxira Sattorova</b>	- Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) a’zo;

### **TASHKILIY QO’MITA**

<b>Xolmirzaev Nodir Sulaymonovich</b>	Qarshi DU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori	rais
<b>Mahamov Xo‘jaaxmad Tavashovich</b>	Texnologik ta’lim kafedrasi mudiri ,dotsent	a’zo
<b>Uzokova Gulnoza Sag’dillayevna</b>	pedagogika fanlari nomzodi, dotsent	a’zo
<b>Begmatova Sevara</b>	Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi	a’zo
<b>Shodmonova Zilola</b>	Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi	a’zo

### **Mas’ul muharrir:**

**Oripova Nodima Halilovna** - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

### **Taqrizchilar:**

**Nurullayeva Shaxlo O‘ktamovna** - pedagogika fanlari doktori, professor.

**Zebo Hamidovna Qosimova** - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

4. Oilada ma'naviy tarbiyani yo'lga qo'yilganligi va uning omillarini, farzandlar ma'naviy dunyosini shakllantirishda ota-onanining mas'uliyatini oshirish.
5. Oilada ma'naviy muhitni shakllantirishda san'at va madaniyatning o'rniga e'tibor berish.
6. Har bir oilaning o'ziga xos qadriyatlar tizimini tarkib toptirishga va ularning farzandlar tarbiyasiga ta'sirini oshirish.

Yuqoridagi tamoyillarga amal qilish oiladagi ma'naviy tarbiyani shakllantirishda, oila a'zolari ma'naviy dunyosini boyitishda, farzandlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Oiladagi ma'naviy muhit barkamol avlod tarbiyasida o'z o'rnini topadi va farzandlar tarbiyasida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga o'tamiz". Toshkent – "O'zbekiston", 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik, har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent – "O'zbekiston" -2016. 488 b.
4. Fitrat A. "Oila yoki oila boshqarish tartiblari". T.: "Ma'naviyat" 1998.
5. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. –T.: Fan, 1993.
6. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – Milliy g'urur. O'quv qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 1999.

## **YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH MASALALARI**

***Hasanova G. Q. dotsent***

*BuxDU gulnozhasanova76@mail.ru*

**Annotatsiya:** Maqolada talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning nazariy asoslari haqida, hamda yaxlit tizim asosida oilaviy munosabatlarni tartibga solish va farzand tarbiyasida xadislardan foydalanish imkoniyatlariga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Annotation:** In the article, scientific-methodical recommendations were developed on the theoretical foundations of preparing students for family life, as well as on the possibilities of regulating family relations and using hadiths in child education on the basis of a holistic system.

Oila-mafkuraviy tarbiyaning ijtimoiy omillaridan biri sifatida yoshlar tarbiyasida, umuman, jamiyat taraqqiyotining asosiy negizi sifatida tavsiflanadi.

Mamlakatimizda istiqlol sharofati bilan oila, onalik va bolalikning ijtimoiy muhofazasi, ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni shakllantirish, onalar va bolalarning salomatligini mustah-kamlash, ular uchun shart-sharoitlar yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlar mazmuni va mohiyati oilaning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy, huquqiy-estetik, jismoniy jihatlarini yanada yaqqol namoyon etdi. Zero, oila avlodlar vorisiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarimizni avloddan-avlodga yetkazadigan, yoshlarni jamiyatimiz hamda Vatanimizning munosib fuqarosi etib tarbiyalaydigan, ularning kelajakda o'z o'rniga ega bo'la oladigan shaxs sifatida shakllanishiga poydevor bo'la oladigan ijtimoiy institutdir.

Albatta, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda mavjud ilg'or oilalar asosiy andoza bo'lib xizmat qiladi. Ammo yangi qurilgan oilalarda juda ko'p muammolar paydo bo'lmoqda. Chunki har ikkala yosh yashab, ulg'aygan oilaning o'ziga xos xususiyati, turmush tarzi mavjud bo'lib, yangi oilada bu ikki xil tartib uyg'unlashishi bir qadar qiyin kechadi.

Ma'lumki, sog'lom oilaning asoslariga oilada er-xotinning o'zaro muhabbatni, ota-onalarning farzandlarga, farzandlarning ota-onalar, aka-uka, opa-singil va boshqa qarindoshlar, jamiyatga nisbatan burch va mas'uliyati kiradi.

Ma'lumki, oilaviy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining «Oila kodeksi»da belgilab qo'yilgan. Bular nikoh, er va xotin, ota-ona, farzandlar va oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi

munosabatlardir. Shuning uchun ham oila qurishda yoshlar dastlab oila va nikoh tushunchasini, uning mohiyatini anglab yetishlari maqsadga muvofiq.

Bunga, avvalo, nikoh va oila qoidalarida har bir fuqaroning faqat bitta nikohda bo'la olishi, u har ikki tomonning roziligi bilan sodir bo'lishi, shaxsiy va mulkiy teng huquqlilikka ega bo'lishi, majburiyatlarda teng huquqlilik, oilaning davlat tomonidan muhofaza etilishi, onalikning muhofaza qilinishi va rag'batlantirib borilishi, o'zaro munosabatlар davlat tomonidan huquqiy tartibga solinishi kabi talablarni bilib olishlari va unga rioxalari qilishlari talab etiladi.

Ikkinchisi, nikohdan o'tayotgan har bir yoshning ixtiyoriy ravishda unga roziligi. Majburan nikoh tuzish «Oila kodeksi»da ta'qiqlanishini bilishlari muhim.

Yoshlar bilishi zarur bo'lган uchinchi masala - bu necha yoshdan oila qurish mumkinligi. Albatta yoshlar, ayniqsa, qizlar 17-18 yoshdan balog'atga yetadi. Lekin ba'zi qizlar jinsiy balog'atga yetgani bilan hali ko'p jihatdan oilaviy turmushga ijtimoiy, ma'nnaviy, maishiy tomonidan tayyor emasligi, farzand tarbiyasidagi tajribasizlik ular oilasining darz ketishiga olib keladi. Ikkinci tomonidan, ularning ko'pchiligidagi oilaviy hayot talabalik yillaridan boshlanib, bu «yuk», ayniqsa qizlarga og'irlilik qiladi va salbiy oqibatlarga olib keladi.

Agar yoshlarning nikohdan o'tish davri 19-20 yoshga to'g'ri kelsa, bu ularning iqtisodiy, ma'nnaviy, intellektual rivojlanishiga ijobjiy ta'sir etadi. Bu yoshda nikohga kirgan yigit-qizlar mustaqil hayot kechirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yuqoridagilardan tashqari yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda faqat qizlarga e'tibor berilib, yigitlar nazardan chetda qolmoqda. Agar yigit ham oilaviy hayotga tayyor bo'lmasa, ular qurban oila mustahkam bo'lmaydi, albatta.

Demak, yigitlarning ham ma'nnaviy yuksak, fikr doirasi keng, odobli bo'lishi bilan birga salomatligini ham kuzatish alohida ahamiyatga ega. Qizlar bilan bir qatorda yigitlarni ham nikohga kirkuncha salomatligini nazoratdan o'tkazish, ular qurban oilaning kelajakda buzilishiga sabab bo'lувчи omillarning oldini olishga yordam beradi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda sevgi-muhabbat, oila, uning xususiyatlari, oilaviy muammolar, ayniqsa, ajralish, bolalar o'llimi, farzandsizlik sabablari, iqtisodiy-xo'jalik ishlarini yurita olmasligi, oilada tarbiya muammolari, oila a'zolarining kommunikativ vazifalari, bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalana olmaslik, oilada er va xotinning biologik, psixologik, sotsial qovushuvi, oilada axloqiy-psixologik muhit va unga ta'sir etuvchi omillar, oila a'zolari o'rta sidagi munosabatlар va ularning qonuniyatlar, jinsiy tarbiyaning ta'siri haqidagi masalalar bilan bog'liqdir.

Yoshlarni oilaviy hayotga, nikohga tayyorlashda, oila mustahkamligini ta'minlashda ularning ota-onalari saviyasi, turmush tarzi, xarakter-xususiyatlari va nihoyat kasb faoliyatlariga e'tibor berish maqsadga muvofiqliqdir. Bitta yoki kam, shuningdek, ko'p bolali oilalarda bolalar tarbiyasi, maktab, oila hamkorligi, ota-onalarga pedagogik bilim berish, tarbiyada milliy urf-odatlarimiz hamda an'analarimizga tayanish muammolariga ko'proq o'zaro munosabatlari, oila va maktabda o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy faolliklarini ta'minlash masalalariga diqqatni qaratadiki, bularning barchasi yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash muammosi yechimini o'zida aks ettiradi.

Zero, O'rta Osiyoda qadimdan oila boshliqlariga farzandlarni uyli-joyli qilish, farzandli bo'lish va uy qura olish qobiliyatiga qarab baho berishgan. Bu an'ana avloddan avlodga o'tib, har bir yoshning ruhiyatiga singib ketgan.

Bu borada milliy tarbiyaga oid an'analarimiz, ya'ni Islomda oilaga va oilaviy tarbiyaga munosabat va uning bolalarni ma'nnaviy-axloqiy tarbiyalashdagi o'rni, Sharq mutafakkirlari merosida oilada bolalarni ma'nnaviy-axloqiy tarbiyalash masalalari, xalq pedagogikasi manbalaridan bolalarni oilada ma'nnaviy-axloqiy tarbiyalashda foydalanish, bolalarni oilada o'zbek xalqining milliy an'analarasi asosida tarbiyalash usullari keng tahlil etiladi. Eng muhimi, oila tarbiyasida maktab, oila, jamoatchilik hamkorligiga va maktab, oila, jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish masalalariga keng e'tibor berish lozim.

Shuning uchun ham oliy o'quv yurtlarida yoshlarning ijtimoiy harakatiga ko'proq e'tibor berish kerak. Chunki, bugungi talaba ertaga oila rahbari yoki uning a'zosidir. Bu sohadagi muammolarni hal etishda quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqliqdir:

1. Har ikkala- qiz va yigit oilalarining muvofiqligiga erishish: moddiy, ma'naviy, jinsiy sog'-lomligi, yoshidagi farqi.

2. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy shakllanganligi va muomala odobiga rioya etishi. Oilada har ikkala jinsga mansub shaxslar bilan munosabatlar me'yorlariga rioya etish, do'stlik, ota-onaga, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik, bolalar tarbiyasiga e'tibor va bunda ehtiyoj, mas'uliyat, sadoqat, oljanoblik, insoniylik; oila-nikoh munosabatlarini e'zozlash va qadrlash, oilada burch mas'uliyati va hokazolarga tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

3. Yoshlarni huquqiy jihatdan oilaviy hayotga tayyorlash. Bu yo'nalishda ularni «Oila kodeksi» va «Nikoh to'g'risida»gi Qonun asoslari, oila a'zolarining huquq va burchlari qoidalarini bilish, er-xotinning o'zaro, farzandlari, jamiyatga nisbatan mas'uliyat hissini anglab yetishga tayyorlashdan iboratdir.

4. Yoshlarni oilaviy hayotga psixologik jihatdan tayyorlash. Bunda ularning oilada rivojlan ganlik darajasi, oila a'zolarining ruhiyati va o'zaro munosabatlar psixologiyasini shakllantirishga tayyorlashdan iboratdir.

5. Jismoniy-gigienik tayyorgarlik. Bu yo'nalish ham muhim bo'lib, oila a'zolarining jinsiy, gigienik tayyorgarligi, intim munosabatlar, kun tartibi, har bir oila a'zosining salomatligidagi o'zgarishlarni kuzatib borish va yordam berishga tayyorlaydi.

6. Pedagogik yo'nalish bo'lib, bunda ota-onalarni farzand tarbiyasi sohasidagi pedagogik bilimlar bilan qurollantirish, ularning pedagogik madaniyatini oshirishdan iboratdir.

7. Yoshlarni oilaviy hayotga estetik munosabatini shakllantirish.

8. Yoshlarni xo'jalik iqtisodini yuritishga tayyorlash. Bunda oila byudjeti va xo'jaligi haqidagi tasavvurlarni boyitish, uni yuritishga oid malaka va ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

O'zbek oilasida bularning barchasi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, biz kelgusida ana shu xususiyatlar va ularni tarkib toptirish imkoniyatlarini yaratishimiz shart va zarur.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ajdodlar o'giti. Hikoyalilar, hikmatlar, -T.: 1990. - 240 b.
2. Azarov Yu.P. Oila pedagogikasi.-T.:O'qituvchi,1988.- 272 b.
3. Azimov A. Islom va hozirgi zamон.-T.:O'zbekiston,1991. -112 b.
4. Al-Buxoriy, Ali Abdulloh Muhammad ibn-Ismoil. Hadis. 4 kitob.1-kitob.-T.: Qomuslar bosh tahriri,1991.-560 b.
5. Almetov N.Sh. O'quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish. - Chimkent: Yuj.Kaz. SITI. 1993. - 83 b.
6. Axloq - odobga oid hadis namunalari. -T.: Fan, 1990. - 172 b.
7. Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati.-T:Cho'lpon,1995.-176 b.
8. Bo'riyeva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi.-T. Universitet, 1997.-18 b.
9. Bo'riyev O., Xoliqov D.Turkona an'ana va udumlar-millat ko'rki. -T.:Minxoj, 1996. - 48 b.

## **MAKTABGACHA TA'LIMDA TIZIMIDA SHAXMAT O'YININING MILLIY TARBIYANI TASHKIL ETISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI**

*Xoliqov U.Q. GulDU "Pedagogika va psixologiya"  
kafedrasi doktoranti. shox75@mail.ru*

*Suyunov M. M. Q.X.M.S va D.I.T yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha va oilada shaxmat o'rganish orqali mantiqiy fiklash, shaxmat bilan shug'ullangan bolaning bo'sh vaqt, barcha fanlarni o'zlashtirishi osonlashtiradi, intellektual salohiyat yuksaladi, qobiliyatlar bag'ishlangan bo'lib, shaxmat o'yinni orqali ularning diqqat, idroki, tafakkuri, xotirasi va mantiqiy fikrlashini o'stirishi va rivojlantirishi yoritilgan.

**Kalit:** maktabgacha ta'lim, oilada , shaxmat o'yin, idroki, tafakkuri, xotirasi, mantiqiy, diqqat, qibiliyat, harakter, sog'lik,ruhiy, jismoniy tayyorgarlik va albatta

<b>50</b>	<b>Sultonov A.I. Ikromova M.A.</b> Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarda milliy axloqiy qadriyatlarimizga xos sifatlarni shakllantirishda oiladagi ma’naviy tarbiyaning ahamiyati	<b>119</b>
<b>51</b>	<b>Hasanova Gulnoz Qosimovna.</b> Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari	<b>122</b>
<b>52</b>	<b>Xoliqov Umidjon Qo’chqarovich. Suyunov Mirodil Munavar o‘g‘li.</b> Maktabgacha ta’limda tizimida shaxmat o‘yinining milliy tarbiyani tashkil etishniq muammolari va istiqbollari	<b>123</b>
<b>53</b>	<b>Hamroyev Shuhrat.</b> Milliy tarbiyani tashkil etishda is’hoqxon ibratning pedagogik merosidan foydalanish	<b>125</b>
<b>54</b>	<b>Alimardonova Mo‘tabar.</b> Biologiya darslarida munavvarqori abdurashidxonovning “yer yuzi” asaridan foydalanish imkoniyatlari	<b>127</b>
<b>55</b>	<b>Eshtemirov X.E.</b> Yengil atletika sportini harbiy-akademik litseyning darsdan keyingi mashg‘ulotlari jarayonlarida to’g’ri tashkillashtirish orqali o‘quvchilarning umumiy chidamliliklarini oshirish	<b>129</b>
<b>56</b>	<b>Юсупов Бекзод Эргашевич.</b> Taъlim tizimini узлуксизлигини такомиллаштиришда таълим ва тарбиянинг уйғунлиги	<b>131</b>
<b>57</b>	<b>Карахонова О.Ю.</b> Бошлангич синф ўқувчиларининг шахс сифатида шаклланишида саноген фикрлашнинг ўрни	<b>133</b>
<b>58</b>	<b>Radjabova I.R.</b> Oilada ta’lim va tarbiyani shakllantirishda xalq pedagogikasining ahamiyati	<b>135</b>
<b>59</b>	<b>Салаева Мухаббат Сабуровна. Азадова Махлия Одилбековна.</b> Взаимодействие дошкольной образовательной организации и семьи в всесторонней подготовке детей к школе	<b>138</b>
<b>60</b>	<b>Мурадов Мухитдин Кадирович. Примов Рашид Тошкулович.</b> Развитие профессионального интереса к выбранной профессии у будущих учителей музыки	<b>140</b>
<b>61</b>	<b>Uzoqov Muhriddin Fahriddinovich.</b> Bolalarning rivojlanishida attraktiv munosabatlarning shakllanishi va ularning ahamiyati	<b>142</b>
<b>62</b>	<b>Яхшибоева Ситора.</b> Бўлажак ўқитувчиларда педагогик фаолиятга ижобий муносабатни шакллантириш мазмуни	<b>144</b>
<b>63</b>	<b>Халирова Х. М.</b> Неонологик ёндашув асосида бошлангич синф ўқувчилари онгида “ТАРБИЯ” фанини шакллантириш механизмларини такомиллаштириш мазмуни	<b>145</b>
<b>64</b>	<b>Убайдуллаев М. М. Турсуналиева Д. И.</b> Узулуксиз таълим тизимида мутахассислик фанлардаги муаммоларини илмий ўрганиш истиқболлари	<b>147</b>
<b>65</b>	<b>Эргашев Юлдошли. Исройлова Нодира Саййётжон қизи.</b> Узулуксиз таълим тизими мисолида аррали жинлаш технологик жараёнларининг инновацион ўёналишларини таҳлил қилиш	<b>149</b>
<b>66</b>	<b>Дмитриева Ольга Александровна.</b> Проектная деятельность как способ воспитания патриотизма и гражданского самосознания	<b>151</b>
<b>67</b>	<b>Sattorova Nazira Safar qizi.</b> O‘quvchi yoshlarda dars mashg‘ulotlari jarayonida umuminsoniy milliy qadriyatlardan foydalanish asosida vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish usullari	<b>153</b>
<b>68</b>	<b>Abdullahayeva Gavhar Ro‘zimurod qizi. Xolboyeva Setora Sobir qizi.</b> Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiat bilan tanishtirishning pedagogik tahlili	<b>155</b>
<b>69</b>	<b>Орипова Н.Х.</b> Вариатив моделлаштиришга доир назарий ёндашувлар таҳлили	<b>157</b>
<b>70</b>	<b>Xo‘jaqulov Akbar. Xasanova Ug'ilshod.</b> Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni milliy va umummilliy qadriyatlar asosida tarbilayalashning mohiyati	<b>159</b>
<b>71</b>	<b>Tosheva N.T., To‘xtayeva S.Q.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy urf – odatlar va ananalar asosida mehr – shafqat hislarini tarbiyalash pedagogik ahamiyati	<b>161</b>
<b>72</b>	<b>Murodova Zulfiya. Rasulova Mastura.</b> Xalq pedagogikasi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni metodologik madaniyatini rivojlantirish	<b>163</b>